



RESPUBLIKA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT
MARKAZI
IJTIMOIY-MA'NAVIY TADQIQOTLAR
INSTITUTI

**MILLIY QADRIYATLAR
VA MA'NAVIY MEROSNING
JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI
AHAMIYATI**

Respublika ilmiy-amaliy anjumani
materiallari

“Ilm-Ziyo-Zakovat”
2023

15	B.Elmuurodov Navoiy asarlari hamda xalq dostonlarida vatanparvarlik va milliy qadriyat	108
16	A.Gulova Qur'oni karim hamda hadisi sharif – Alisher Navoiy ma'naviy merosining g'oyaviy sarchashmasi	115
22	N.Saidkulov Jamiyat siyosiy tafakkuri shakllanishining tarixiy ildizlari	120
23	I.Eshpulatov G'azzoliy va uning tarbiya falsafasi	130
25	M.Joniyev Boburiylar davlati madaniy hayotida termiziy xattotlar	138
26	F.Temirov Sadriddin Ayniyning turkistondagi jadidchilik va ma'rifatparvarlik harakatida tutgan o'rni	143
27	I.Ibragimov Turkiston jadidlari ilmiy-ma'naviy merosi xorij olimlari nigohida	150
28	B.Baxodirov Ijtimoiy-siyosiy ta'limotlarning rivojlanish bosqichi	157
29	N.Ibrohimova. O'zbekistonda mehmondo'stlik ana'analari: viloyatlardagi farqlar va o'xshashliklar	162
30	D.Do'sbekov "Alpomish" va "Manas" dostonlarining qiyosiy tadqiqi	168
31	O.Toshev Yuksak tafakkur sohibi – mahmud zamaxshariy ijodiy merosi	176
32	X.Ochilov Buyuk sohibqironning odil jamiyat barpo etish bilan bog'liq qarashlari	183
II. Sho'BA. MILLIY QADRIYATLAR VA MA'NAVIY MEROSNI TARG'IB ETISHDA ZAMONAVIY TARG'IBOT TEXNOLOGIYALARI		
33	D.Babajanova Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda milliy qadriyatlar va ma'naviy merosni targ'ib etishning ahamiyati	188
34	M.Kaxarova Milliy qadriyatlarni targ'ib etishda targ'ibotning zamonaviy texnologiyalari	195
35	O.Bozorov Milliy qadriyatlarning jamiyat taraqqiyotdagi o'rni	201
36	K.Kamolova Yangi o'zbekistonda milliy qadriyatlar masalasi	208

Anorgul GULOVA,
Buxoro davlat universiteti katta o'qituvchisi,
f.f.f. doktori

QUR'ONI KARIM HAMDA HADISI SHARIF – ALISHER NAVOIY MA'NAVIY MEROSINING G'OYAVIY SARCHASHMASI

***Annotatsiya.** Mustaqillik yillarida esa “avliyolar avliyosi” bo'lgan Navoiy bobomiz merosi tasavvufiy nuqtai nazari-dan tadqiqotchilar tomonidan tahlil qilingana boshladi. Olam Ijodkori hamda uning Elchisiga nisbatan cheksiz e'tiqod va ixlosning ifodasi sifatida vujudga kelgan allomaning hamd va na'tlari bisyor bo'lib, ularning g'oyaviy sarchashmalarini, asosan, Qur'oni karim hamda Hadisi sharif tashkil etadi. Maqola shu to'g'risida.*

***Kalit so'zlar:** Alloma, tahlil, tasavvufiy, ilohiylik, inson, ta-biat va borliq, Badoe' ul-vasat, Hadis, turkiy adabiyot.*

Ma'lumki, Sobiq ittifoq davrida Alisher Navoiy asarlar-idagi hamd va na't qismlari o'z aksini topgan kirish boblari “rasmiy boblar” deb atalib, nazardan chetda qolib ketgan. Mustaqillik yillarida esa “avliyolar avliyosi” bo'lgan Navoiy bobomiz merosi tasavvufiy nuqtai nazaridan tadqiqotch-ilar tomonidan tahlil qilinganida, aynan kirish boblarida ham chuqur falsafiy nuqtai nazarlar bayon qilinganligi ayon bo'ldi. Alloma fikricha, inson, tabiat va borliq bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir.

Bundan tashqari, inson boshqa jonzotlardan o'z ruhini-ning, aqlining yuksak darajada rivojlangani bilangina emas, balki yuqorida ta'kidlanganidek, tanasining ilohiylik kasb etgani bilan ham farqlanadi.

Shunday ekan, har bir insonda mavjud ilohiylik, ulug' qadr-qimmat hamisha e'tiborga molik tutilib ish tutilishi

darkor. Mazkur holat uning ma'naviy kamoloti yo'lida xizmat qilish lozim.

Olam Ijodkori hamda uning Elchisiga nisbatan cheksiz e'tiqod va ixlosning ifodasi sifatida vujudga kelgan al-lomaning hamd va na'tlari bisyor bo'lib, ularning g'oyaviy sarchashmalarini, asosan, Qur'oni karim hamda Hadisi sharif tashkil etadi. Buning isboti sifatida "Badoe' ul-vasat" devonining 101-raqami ostidagi g'azalini keltirish mumkin:

*"Zihi taqaddumung Odamg'a bas hadisi sahih,
Bu nukta "kuntu nabiyyan" ishoratida sarih.
Azalda vaslingu hajring magar nasib o'ldi
Ki, jon toparni Xizir oldi, jon berurni Masih.
So'zungni xoni nubuvvatqa Tengri tuz yasadi,
Zihi kamoli malohat, zihi kalomi malih.
Chu sen chekib "ana afsah", taronasin qochirib,
Alarki da'vo ila so'z ochib, deb o'zni fasih.
Demak shariati bayzoni mehrga rojih,
Quyoshni zarrag'a qilg'an kibidurur tarjih.
Yuzung sabuhi azal bodasidin andoqkim,
Ne subhg'a bu sabohat, ne mehr muncha sabih.
Navoiy o'ldi nihon ishqing ichra, tirguz ani,
Necha nihon tutayin, ayladim o'lub tasrih [1.78].*

Ushbu g'azalning ilk baytida so'fiylar o'rtasida mashhur bo'lgan "Kuntu nabiyyan va kona Odama baynal-moi vat-tin" (Hali Odam suv va tuproq orasida bo'lgan, ya'ni hali inson shaklida yaralmagan zamonlardayoq men payg'ambar edim) hadisi ma'nosi berilgan. Hadis ilmi bilimdonlari bo'lmish muhaddislar mazkur hadisni sahih hadislar qatoriga kiritishmagani bois birinchi misradagi "hadisi sahih" iborasini istiloh sifatida emas, balki lug'aviy mazmunida, ya'ni "to'g'ri so'z" sifatida anglashimizni taqozo qiladi. G'azalning keyingi baytini tahlilga tortamiz:

*Azalda vaslingu hajring magar nasib o'ldi
Ki, jon toparni Xizir oldi, jon berurni Masih.*

Mazkur baytda Xizr va Iso alayhissalomning mo'jizalariga ishora qilingan. Xizr (a)ga abadiy hayot mo'jizasi, Iso Masih (a)ga o'likka jon berish mo'jizasi berilganligi diniy manbalardan ma'lum. Navoiy payg'ambarlar mo'jizalari dastlab ibtidosiz zamon – azalda, oxirzamon payg'ambari Muhammad(s.a.v) sharofati bilan sodir bo'lganini birinchi misrada mohirona ifodagan.

*So'zungni xoni nubuvvatqa Tengri tuz yasadi,
Zihi kamoli malohat, zih kalomi malih.*

Ushbu baytda Payg'ambarimiz Muhammad(s.a.v)ning siyratlariga bag'ishlangan yana bir hadisga ishora berilganiga guvoh bo'lamiz. "Qisasi Rabg'uziy" da keltirilishicha, Oyisha onamiz Rasululloh (s.a.v)dan Yusuf (a) husni haqida so'rganlarida ul zot: – Birodarim Yusuf mendan go'zalroqdir, lekin men undan malohatliroqman, – deb marhamat qilgan ekanlar[3.124]. Alisher Navoiy g'alayonga sabab bo'luvchi go'zallikdan e'tiqodni mustahkam qiluvchi malohat ustun ekanligini ifodalab, malohatning husndan ustunligi to'g'ri, yoqimli so'z sababli yuzaga kelishini uqti radi.

*"Chu sen chekib "ana afsah" taronasin qochirib
Alarki da'vi ila so'z ochib, deb o'zni fasih".*

Ushbu baytda "Men Quraysh ahlining eng fasohatlisiman" mazmunidagi hadisning boshlanish qismidan iqtibos keltirilib, sarvari olamning fasohat bobida tengsizligi shunchaki quruq da'vo yoki faxriya emas, balki voqeelikning ayni o'zi ekanligi, ikki dunyo sarvarining fasohati uning g'oyaviy dushmanlari tomonidan ham tan olinganini ko'rsatadi.

Payg'ambarning fasohatli so'zlari to'g'ri yo'lda yurishni maslakka aylantirgan, Haq yo'lda bo'lmoqqa imon keltirgan insonlar uchun misoli dasturulamal, yo'lni yoritguvchi chiroqdir. Qur'oni karimda "Siroji munir" (yo'lni yoritguvchi chiroq – "Ahzob" surasi, 46-oyat), "Nur" ("Moida"

surasi, 15-oyat) deya ta'riflangan bu zoti munavvar keltirgan shariati bayzo ("bayzo" ikki ma'noni, ya'ni oydin, ravshan, shubhadan xoli hamda quyosh ma'nosini bildiradi) agar mehr – quyoshga qiyoslansa, shariatning quyoshdan afzalligi, quyoshning zarradan afzalligi kabi ko'rinur. Agar quyosh moddiy olamni yoritguvchi bo'lsa, shariati muhammadiya ruhoniyyat olamining quyoshidir, – deydi Navoiy[2.128]:

*Demak shariati bayzoni mehrga rojih,
Quyoshni zarrag'a qilg'an kibidurur tarjih.*

Hazrat Navoiy mazkur baytda arabcha bayzo, tojikcha mehr va o'zbekcha quyosh so'z ma'nolaridan shoirona mahorat bilan foydalanganligiga guvoh bo'lamiz. Bu holat Jaloliddin Rumiyning uzum, inab, istofil va angur haqidagi hikoyatini yodga soladi. Shariati Muhammadiyning mehrdan (quyosh yoki bayzo emas, aynan mehrdan!) afzalligi islomiy shariatning mitraizm (mehrparastlik – Quyoshga sig'inish) dinidan ustunligi ifodasi sifatida xizmat qilgan. Shuningdek, g'azalda dunyodagi barcha dinlar mohiyatiga ko'ra yagona bo'lsa-da, islom shariatiga qiyoslanganda boshqa diniy ta'limotlar quyosh va zarraning o'xshashligi va nisbatida bo'lishi ham tasvirlagan.

*Yuzung sabuhi azal bodasidin andoqkim,
Ne subhg'a bu sabohat, ne mehr muncha sabih.*

Subh, sabuh, sabohat, sabih so'zlari orqali, odatda, go'zallik, yorug'lik, poklik, yaxshilik ma'nolari anglashiladi. Bu o'rinda Payg'ambarning zuhuri aynan ana shu Poklik, Go'zallik, Yaxshilik, Nur va Ziyo tantanasi ekan, har bir kishi Islom payg'ambari keltirgan dinga e'tiqod qilishi orqali mazkur yo'lda sobit bo'lishga sidqidildan bel bog'lamog'i joizligi ta'kidlanmoqda.

Alisher Navoiy Muhammad (s.a.v) shaxsiyati va ruhoniyyatiga bo'lgan muhabbat jondan-da aziz ekanligini quyidagi misralarda ifodalagan:

*Navoiy o'ldi nihon ishqing ichra, tirguz ani,
Necha nihon tutayin, ayladim o'lub tasrih.*

Alloma oxirzamon payg'ambari siymosini nubuvvat, risolat, malohat, fasohat, shariat, sabohat tushunchalarida ifodalab, oxirgi baytni muhabbatga yo'g'rilgan so'zlar bilan yakunlaydi. Navoiy bu bilan bir tomondan islom payg'ambariga bo'lgan muhabbati yuzaki e'tiqod mahsuli emasligi, balki buyuk ma'rifat tufayli shakllanganligiga urg'u qaratasa, ikkinchi tomondan axloqiy-falsafiy tushunchalar hamda rasulullohgagina xos bo'lgan fazilatlar aynan muhabbat mahsuli ekanligini nozik ishoralar orqali ko'rsata olgan. Ko'pgina ulamolar ta'kidlaganidek, oxirzamon payg'ambariga eng ulug' mo'jiza – So'z mo'jizasi ato etilgani bu zotning boshqa payg'ambarlardan ustunligini ko'rsatuvchi jihatlardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 5-jild. Badoe' ul-vasat.* – Toshkent: Fan, 1990 – B.78.

2. *“Alisher Navoiy ijodiy merosining umumbashariyat ma'naviy – ma'rifiy taraqqiyotidagi o'rni” Xalqaro ilmiy anjuman materiallari.* – Navoiy, – 2017. – B.128.

3. *Rabg'uziy Nosiruddin Burhonuddin. Qisasi Rabg'uziy. Birinchi kitob.* – Toshkent: Yozuvchi, 1990. – B. 124.